
XIToyLIKlAR BILAN KELISHUVGA ERISHILDI

Hamkorlik ufqlarida

Avval xabar berib o'tganimizdek, shu kunlarda Rishton tumani hokimi o'rinbosari A. Siddiqov boshchiligidagi tadbirkorlardan iborat delegatsiya Xitoyning Guanchjou provinsiyasida joylashgan Guanchjou va Dongguan shaharlarida bo'lib turishibdi.

KUTIB OLISH MAROSIMI Delegatsiya a'zolarini rasmiy kutib olish jarayoni o'tkazildi. Rishton tumanidan tashrif buyurgan mehmonlarni O'zbekiston Respublikasining Xitoydagi elchixonasi vakillari hamda Guanchjou va Dongguan shaharlari rasmiylari tantanli ravishda kutib olishdi.

RASMIY UCHRASHUVLAR Rasmiy kutib olish jarayonlari poyoniga yetgach, rasmiy uchrashuvlar boshlandi. Rasmiy uchrashuvlarda Xitoy tadbirkorlar doirasi jumladan, Guangzhou LIUHUA Apparel Digital Trade Center vitse prezidenti Pin Chan, Guangzhou LIUHUA Fashion Wholesale Market direktori Vera Vuu, Guangzhou LIUHUA Fashion Wholesale Market jamoatchilik aloqalar bo'yicha mutaxassis Domi Tan, Guangzhou LIUHUA Apparel Digital Trade Center vitse prezidenti Cai Hanxiang, Dongguan Xinli Trading Co raisi va bir qator yirik korxonalar bilan O'zbekistonga xususan Rishton tumaniga yangi loyihalarni jalb qilish orqali sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

MEMORANDUM IMZOLANDI Tadbir davomida shuningdek, kulolchilik hamda savdo-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish, do'stlik jamiyatlari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda samarali faoliyat olib borish, O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish yuzasidan memorandum imzolandi.

CHINNICHILIK UCHUN YANGI TEXNOLOGIYALAR Muzokaralar davomida Xitoyliklar bilan Rishton tumanida zamonaviy chinni mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida ham kelishuvga erishildi. Endi tumanimizdagi chinni mahsulotlari yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilishi rejalashtirildi. Bu Xitoyga qilingan tashrif mahsuli bo'lishi bo'yicha kelishib olindi. Uchrashuvda Rishton chinni mahsulotlarining raqobatbardosh bo'lib uning eksport geografiyasini kengaytirish eng asosiy maqsad qilib olindi.

RISHTONGA TASHRIF Imzolangan memorandumga ko'ra, Xitoy mamlakati delegatsiyasi yil oxiriga qadar Rishton tumaniga tashrif buyurishi belgilab olindi. Tumanimizda ham bu ikki mamlakat tadbirkorlari bilan hamkorlik memorandumini imzolananishi rejalashtirilgan. Rishton tumani delegatsiyasining Xitoy safari davom etmoqda.

2024-09-24 09:14:15